



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “30” aprel

BUYRUQ № 86

Toshkent sh.

**Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo‘jaligi
faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish
bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114- son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo‘jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, buyuraman:

1. “Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo‘jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019- yil 4- yanvardagi “Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida tajriba tariqasida yer uchastkalari egalari tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha vaqtinchalik tartib”, “Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaligi tanlanma kuzatuvini so‘rovnomasini to‘ldirish bo‘yicha ko‘rsatmalar”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 1- son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 27- yanvardagi “Fermer xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 30- apreldagi Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo‘jaligi faoliyati

tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risidagi 14- son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022- yil 19- oktabrdagi "Dehqon va tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 37- son qarori.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor



B. Begalov

**Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo‘jaligi
faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish
bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114- son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo‘jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, buyuraman:

1. “Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo‘jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019- yil 4- yanvardagi “Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida tajriba tariqasida yer uchastkalari egalari tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha vaqtinchalik tartib”, “Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaligi tanlanma kuzatuvini so‘rovnomasi” va “Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaligi tanlanma kuzatuvini so‘rovnomasini to‘ldirish bo‘yicha ko‘rsatmalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1- son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 27- yanvardagi “Fermer xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 30- apreldagi “Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo‘jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 14- son qarori;

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 30 aprel dagi
85 - sonli buyrug'iga
ilova

**Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo'jaligi
faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
Uslubiy nizom**

Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo'jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo'jaligi faoliyati statistik kuzatuvini tashkil etish uchun tanlanma to'plamni shakllantirish tartibini, o'rganilayotgan asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash, shuningdek, tanlanma kuzatuv ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish va kuzatuv natijalarini O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi bo'yicha tegishli yilning choraklik yakunlari hisob-kitoblarida qo'llash tartibini o'z ichiga olgan metodik material hisoblanadi.

Uslubiy nizom asosiy turdagi dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmlari, qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalari bosh sonlari to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish maqsadida tezkor birlamchi statistik ma'lumotlarni yig'ishni tashkil etish va o'tkazishning asosiy yondoshuvlarini belgilaydi.

Tanlanma kuzatuvlarni o'tkazish mexanizmi tanlanma kuzatuvlarni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari bo'yicha ifodalangan va statistika organlari tomonidan tegishli hisobot davrida asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalari bosh sonlari hisob-kitoblarini amalga oshirish imkonini beruvchi ishonchli statistik ma'lumotlarni olish uchun mo'ljallangan.

Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model- GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Kuzatuvlarni o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili tasdiqlanadigan "Statistika dasturi" qonuniy asos bo'lib hisoblanadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy nizom GSBPM ning yig'ish bosqichi doirasida tanlanmani shakllantirish, kuzatuvni tashkil etish, kuzatuvni amalga oshirish, kuzatuvni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo'jaligi faoliyati kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish, respublika va hududlar darajasida statistika kuzatuvni savolnomasida o'rnatilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

3. Kuzatuvlar maxsus statistik savolnomalarni mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan o'zlari to'ldirishi usuliga asoslanadi va tanlab olingan mikrofirma va kichik korxonalarning unda ixtiyoriy ravishda qatnashishi asosida o'tkaziladi.

Agar kuzatuv o'tkaziladigan kun dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelsa, unda dam olish kunidan keyingi birinchi ish kuni kuzatuv o'tkaziladigan kun hisoblanadi.

4. Statistik savolnoma internet tarmog'i vositasida, eStat avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda taqdim etiladi.

5. Kuzatuv davrida olingan ma'lumotlar asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha, tuman va shaharlar kesimida mikrofirma va kichik korxonalar faoliyatining quyidagi umumiy ko'rsatkichlari shakllantiriladi:

a) asosiy turdagi qishloq xo'jaligi ekinlarining maydoni va yig'ilgan yalpi hosili:

- don va dukkakli don ekinlari;
- shu jumladan, boshqoqli don ekinlari;

shundan:

- bug'doy;
- arpa;
- boshqa boshqoqli don ekinlari;
- makkajo'xori don uchun;
- sholi;
- dukkakli don ekinlari;

- boshqa don va dukkakli don ekinlari;

- texnik ekinlar;

shundan:

- g'o'za;

- moyli ekinlar;

-boshqa texnik ekinlar;

- kartoshka;

- sabzavotlar;

shu jumladan:

- pomidor;

- bodring;

- baqlajon;

- qalampir;

- sabzi;

- sholg'om;

- turp;

- oziqbop lavlagi;

- piyoz;

- sarimsoq;

- karam;

- boshqa sabzavot ekinlari;

- poliz;

- sabzavot va poliz ekinlari urug'zorlari;

- ozuqa ekinlari;

- mevalar va rezavorlar;

shu jumladan:

- olma;

- nok;

- olxo'ri;

- olcha;

- gilos;

- o'rik;

- shaftoli;

- anjir;

- qulupnay;

- limon;

- boshqa mevalar va rezavorlar;

- uzum.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'ib olingan yalpi hosili asosiy, takroriy, oraliq, qator oralig'i ekinlari va yopiq yerlardan dastlabki kirim qilingan vaznda yil boshidan o'sib boruvchi yakunda hisobga olinadi.

b) asosiy turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va barcha turdagi parrandalar bosh soni:

- yirik shoxli qoramollar;
- shundan sigirlar;
- qo'y va echkilar;
- cho'chqalar;
- otlar;
- parrandalar.

Qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalar bosh soni savolnomani to'ldirish kuniga hisobga olinadi.

d) asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarining yetishtirilishi:

- go'sht, tirik vaznda;
- sut;
- tuxum;
- jun;
- qorako'l teri;
- asal;
- ovlangan baliqlar.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmlari yil boshidan o'sib boruvchi yakunda hisobga olinadi.

2-bob. Mikrofirma va kichik korxonalar tanlanma to'plamini shakllantirish

6. Kuzatuvlar har chorakda, ya'ni yilda to'rt marta, hisobot yilining 1 aprel, 1 iyul, 1 oktabr va hisobot davridan keyingi yilning 1 yanvar holatiga ko'ra respublikaning qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar mavjud bo'lgan barcha tuman va shaharlarida o'tkaziladi.

7. Har bir tuman, shahar bo'yicha tanlanma to'plamni shakllantirish Statistika agentligining Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

8. Mikrofirma va kichik korxonalarning tanlanma to'plamini shakllantirish uchun **muntazam (mexanik) tanlash usulidan** foydalaniladi. Muntazam tanlash tanlanmani tuzish jarayonini yaxshiroq kuzatish va tanlanma to'plamdagi xatoliklardan chekinish imkonini beradi, shuningdek, geografik taqsimotni ta'minlash xususiyatiga ega.

9. **Tanlash va kuzatuv birligi** bo'lib, faoliyat yuritayotgan mikrofirma va kichik korxonalar hisoblanadi.

10. Tanlanma to'plamni shakllantirishda to'ldirilgan savolnomalar natijasida olinadigan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi hisobga olinadi. Tanlanma to'plamni shakllantirish uchun asos sifatida o'rganiladigan mahsulot turlarini yetishtiruvchi va o'rganiladigan turdagi mollar va parrandalar bosh soni mavjud bo'lgan barcha faoliyat yuritayotgan mikrofirma va kichik korxonalarning sonidan (bosh to'plam) foydalaniladi.

Bosh to'plam bu – o'rganish maqsadiga mos keladigan, o'rganilayotgan ob'ektning istisnosiz barcha birliklari to'plami.

Tanlanma to'plam (tanlanma) bu – maxsus usul bilan tanlab olingan va jami bosh to'plamni tavsiflash uchun mo'ljallangan bosh to'plam birliklarining bir qismi.

11. Mikrofirma va kichik korxonalarning tanlanma to'plamini shakllantirish birinchi chorak, ya'ni yilning 1 aprel kuzatuvlari uchun alohida amalga oshiriladi. Keyingi choraklar uchun, ya'ni 1 iyul, 1 oktabr va 1 yanvar kuzatuvlari uchun tanlanma to'plam birinchi chorak kuzatuvlaridan farqli o'laroq barcha uchta chorak uchun alohida umumlashtirilgan ko'rinishda, rotatsiyasiz, ya'ni kuzatiladigan mikrofirma va kichik korxonalarni almashtirmasdan shakllantiriladi.

12. Chorvachilik bo'yicha birinchi chorak kuzatuvlari uchun shakllantirilgan tanlanma to'plamdan barcha to'rtta chorakda rotatsiyasiz foydalanish mumkin.

13. Bosh to'plamdagi mikrofirma va kichik korxonalarning sonini aniqlash uchun tegishli yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan statistika organlariga taqdim etilgan "Mikrofirma va kichik korxonaning qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot" statistika hisoboti, hamda Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma'lumotlaridan foydalaniladi.

14. Agar kuzatuv o'tkaziladigan yilda yangidan tashkil etilgan qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalarda kuzatuv davrida o'rganiladigan turdagi mahsulotlar va qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalari soni to'g'risidagi ma'lumotlar ma'lum bo'lsa, bunday subyektlarni tanlanma to'plamga kiritish mumkin.

15. Tanlanma to'plamning elektron ro'yxati har bir kuzatuv davri uchun ya'ni, choraklar bo'yicha hududiy statistika organlariga yuboriladi va Statistika agentligining rasmiy saytiga hamda dasturiy ta'minotga joylashtiriladi.

16. Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish sxemasi mazkur Uslubiy nizomning 6-ilovasida ko'rsatilgan.

1-§. Birinchi kuzatuv choragi uchun mikrofirma va kichik korxonalarning tanlanma to'plamini shakllantirish

17. Birinchi kuzatuv davri uchun mikrofirma va kichik korxonalarning tanlanma to'plamini shakllantirishda ayrim turdagi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishdagi mavsumiylik omillari hisobga olinadi.

Yilning yanvar-mart oylarida, ya'ni birinchi choragida bahorgi ekinlarni ekish endi boshlanayotgan bo'ladi. Bu davrda dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish bilan yopiq yerlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalar shug'ullanadi. Shuning uchun, dehqonchilik bo'yicha mikrofirma va kichik korxonalarning tanlanma to'plamini shakllantirish davomida shakllantiriladigan ro'yxatga faqat yopiq yerlari mavjud bo'lgan subyektlar kiritiladi.

Bundan tashqari, ro'yxatga kartoshka va sabzavot ekinlarining erta pishar navlari ekin maydonlari mavjud bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarni kiritish mumkin.

Asal ishlab chiqarishning mavsumiyligini hisobga olib, bu davrda chorvachilik bo'yicha mikrofirma va kichik korxonalarning tanlanma to'plamini shakllantirishda olingan asal hajmi yoki asalari uyalari mavjud subyektlar shakllantiriladigan ro'yxatga qo'shilmaydi.

18. Kuzatuvlar uchun ro'yxatni tuzishda mikrofirma va kichik korxonalar ko'rsatkichlarning o'sib borishi bo'yicha tartiblanadi (shartli misollar 1-, 2-, 3-ilovalarda ko'rsatilgan).

Tartiblangan qator bu - tanlanmaning o'rganilayotgan belgilari ayrim birliklarini o'sib yoki kamayib boruvchi tartibda taqsimlashdir. Tartiblash miqdoriy belgilarni guruhlar bo'yicha oson ajratish, eng kichik va eng katta belgilarni darhol aniqlash, eng ko'p takrorlanayotgan belgilarni ajratish imkonini beradi.

Dehqonchilik bo'yicha tanlash asoslari:

1-to'plam – yopiq yer (issiqxonalar, parniklar) maydonlari mavjud mikrofirm va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

2-to'plam – kartoshka ekin maydonlari mavjud mikrofirm va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

3-to'plam – sabzavot ekinlari ekin maydonlari mavjud mikrofirm va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

Chorvachilik bo'yicha tanlash asoslari:

4-to'plam – yirik shoxli qoramollar bosh soni mavjud mikrofirm va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

5-to'plam – sigirlar bosh soni mavjud mikrofirm va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

6-to'plam – qo'y va echkilar bosh soni mavjud mikrofirm va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

7-to'plam – cho'chqalar bosh soni mavjud mikrofirm va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

8-to'plam – otlar bosh soni mavjud mikrofirm va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

9-to'plam – parrandalar bosh soni mavjud mikrofirm va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

10-to'plam – ovlangan baliqlar hajmi mavjud mikrofirm va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

Demak, birinchi davrda mikrofirm va kichik korxonalarni kuzatish uchun o'rganiladigan ko'rsatkichlarning soniga muvofiq 10 ta to'plam shakllantiriladi.

2-§. Ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi kuzatuv choraklari uchun mikrofirm va kichik korxonalarning tanlanma to'plamini shakllantirish

19. Yilning ikkinchi choragidan qishloq xo'jaligi ekinlarini ochiq yerlardan yalpi yig'ib olish boshlanadi, shuning uchun ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi kuzatuv davri uchun mikrofirm va kichik korxonalarning tanlanma to'plamini shakllantirish paytida mavsumiylik omillari salbiy ta'sir qilmaydi.

20. Kuzatuvlar uchun ro'yxatni tuzishda mikrofirma va kichik korxonalar ko'rsatkichlarning o'sib borishi tartibida taqsimlanadi (shartli misollar 2- va 3- ilovalarda ko'rsatilgan).

Dehqonchilik bo'yicha tanlash asoslari:

1-to'plam – bug'doy ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

2-to'plam – arpa ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

3-to'plam – boshqa boshqoli don ekinlari ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

4-to'plam – makkajo'xori don uchun ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

5-to'plam – sholi ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

6-to'plam – dukkakli don ekinlari ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

7-to'plam – boshqa don va dukkakli don ekinlari ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

8-to'plam – g'o'za ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

9-to'plam – moyli ekinlar ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

10-to'plam – boshqa texnik ekinlar ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

11-to'plam – kartoshka ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

12-to'plam – pomidor ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

13-to'plam – bodring ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

14-to'plam – baqlajon ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

15-to'plam – qalampir ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

16-to'plam – sabzi ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

17-to'plam – sholg'om ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

18-to'plam – turp ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

19-to'plam – oziqbop lavlagi ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

20-to'plam – piyoz ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

21-to'plam – sarimsoq ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

22-to'plam – karam ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

23-to'plam – boshqa sabzavot ekinlari ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

24-to'plam – oziqbop poliz ekinlari ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

25-to'plam – sabzavot va poliz ekinlari urug'zorlari ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

26-to'plam – ozuqa ekinlari ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

27-to'plam – olma maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

28-to'plam – nok maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

29-to'plam – olxo'ri maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

30-to'plam – olcha maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

31-to'plam – gilos maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

32-to'plam – o'rik maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

33-to'plam – shaftoli maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

34-to'plam – anjir maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

35-to'plam – qulupnay maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

36-to'plam – limon maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

37-to'plam – boshqa mevalar va rezavorlar maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

38-to'plam – tokzorlar maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

39-to'plam – yopiq yer (issiqxonalar, parniklar) maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

Chorvachilik bo'yicha tanlash asoslari:

40-to'plam – yirik shoxli qoramollar bosh soni mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

41-to'plam – sigirlar bosh soni mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

42-to'plam – qo'y va echkilar bosh soni mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

43-to'plam – cho'chqalar bosh soni mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

44-to'plam – otlar bosh soni mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

45-to'plam – parrandalar bosh soni mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

46-to'plam – ovlangan baliqlar hajmi mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

47-to'plam – olingan asal hajmi yoki asalari uyalari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati.

Demak, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi kuzatuv davrlarida mikrofirma va kichik korxonalarni kuzatish uchun o'rganiladigan ko'rsatkichlarning soniga muvofiq 47 tadan to'plam shakllantiriladi.

3-§. Kuzatuvlar uchun tartiblangan ro'yxatdan mikrofirma va kichik korxonalarni tanlash

21. Kuzatuvlar uchun tartiblangan ro'yxatdan mikrofirma va kichik korxonalarni tanlab olish 1-jadval yordamida amalga oshiriladi, bu yerda mikrofirma va kichik korxonalarni ularning bosh to'plamdagi soniga bog'liq ravishda guruhlash, mikrofirma va kichik korxonalarni ularning bosh to'plamdagi soniga bog'liq ravishdagi tanlash foizi, tanlanma to'plamdagi subyektlarning soni, tanlash oralig'i (qadami) keltirilgan.

Tanlash qadami bosh to'plamdagi birliklar sonini tanlanma to'plamdagi birliklar soniga bo'lish orqali quyidagi formuladan foydalanib hisoblanadi:

$$\left(a = \frac{N}{n}\right),$$

bu yerda, a – tanlash qadami;

N – bosh to'plamdagi birliklar soni;

n – tanlanma to'plamdagi birliklar soni.

22. Tanlanma sonining ko'payishi tanlanma xatoliklarining kamayishiga olib keladi. Agar tanlanma sonini bosh to'plam sonigacha olib borilsa, tanlanma xatolarini nolgacha olib kelish mumkin, tanlanma sonini haddan tashqari kamaytirish tanlanma xatolarining ko'payishiga olib keladi. Biroq, tanlanma foizini oshirish ish hajmining ko'payishiga olib keladi, qo'shimcha xarajatlarni va qo'shimcha vaqt sarflashni keltirib chiqaradi.

23. Tanlanma to'plam xatoliklarining oldini olish yoki kamaytirish maqsadida, kuzatuvlarni o'tkazish uchun mikrofirma va kichik korxonalarni tanlash paytida tanlov foizining 1-jadvalda keltirilgan qulay varianti tanlanadi.

1-jadval

Kuzatuvlar uchun tartiblangan ro'yxatdan mikrofirma va kichik korxonalarni tanlash

T.r.	Mikrofirma va kichik korxonalarni ularning bosh to'plamdagi soniga (N) bog'liq ravishda guruhlash, birlik	Mikrofirma va kichik korxonalarni ularning bosh to'plamdagi soniga (N) bog'liq ravishda tanlash foizi (w)	Tanlanma to'plamdagi subyektlarning soni(n), birlik (4-ustun = $2 / 100 * 3$)	Tanlash oralig'i (qadami) (a) $(a = \frac{N}{n})$ (5-ustun = $2 / 4$)
1	2	3	4	5
1	1 - 50	100,0	50	-
2	51 - 100	50,0	50	2
3	101 - 150	33,0	50	3

T.r.	Mikrofirma va kichik korxonalarni ularning bosh to'plamdagi soniga (N) bog'liq ravishda guruhlash, birlik	Mikrofirma va kichik korxonalarni ularning bosh to'plamdagi soniga (N) bog'liq ravishda tanlash foizi (w)	Tanlanma to'plamdagi subyektlarning soni(n), birlik (4-ustun = $2 / 100 * 3$)	Tanlash oralig'i (qadami) (a) $(a = \frac{N}{n})$ (5-ustun = $2 / 4$)
1	2	3	4	5
4	151 - 200	25,0	50	4
5	201 - 250	20,0	50	5
6	251 - 300	17,0	51	6
7	301 - 400	13,0	52	8
8	401 - 500	10,0	50	10
9	501 va yuqori	5,0	-	-

24. Tuman, shaharlarda mikrofirma va kichik korxonalar sonining har xilligini hisobga olib, tanlanma to'plamni shakllantirishda tanlash foizi tegishli tumandagi yoki shahardagi ularning soniga mutanosib ravishda aniqlanadi, bunda barcha tuman, shaharlarda kuzatiladigan mikrofirma va kichik korxonalarning teng miqdordagi soni ta'minlanadi.

Masalan, tumanda bug'doy ekin maydonlari mavjud jami 162 birlik mikrofirma va kichik korxonalar mavjud (bosh to'plam), 1-jadval ma'lumotlari bo'yicha mazkur tumanda bitta davrda kuzatuv o'tkazish uchun tanlash foizi 25,0 foizni tashkil qiladi, shu tarzda kuzatuvlarni o'tkazish uchun tuman bo'yicha 41 ($162 / 100 \times 25,0 = 41$) birlik subyekt (tanlanma to'plam) tanlab olinadi. Bunday holatda tanlash qadami ($162 / 41 = 4$) 4 ni tashkil qiladi, bunda tanlash boshida ro'yxatga "1" – tartib raqami bilan kiritilgan subyekt tanlanadi va keyin har 4-subyekt tanlanadi.

25. Kuzatuvlarni o'tkazish uchun mikrofirma va kichik korxonalar sonini aniqlash tamoyillari 1 va 2- jadvallarda ifodalangan.

26. Har bir bosh to'plam uchun tanlashning boshlanishi birinchi tanlov oralig'ining o'rtasidir. Tanlash tanlovga "1" tartib raqami bilan kiritilgan subyektdan boshlanadi va keyin tanlash oralig'iga muvofiq amalga oshiriladi (1-jadval).

27. Agar ro'yxatning oxirida bir nechta subyekt qolib ketsa va ularning soni tanlash oralig'ining yarmiga teng yoki katta bo'lsa, unda ro'yxatdagi oxirgi subyekt tanlovga kiritiladi. Agar qoldiq tanlash oralig'ining yarmidan kichik bo'lsa, unda oxirgi subyekt tanlovga kiritilmaydi.

28. Bundan tashqari, 1-jadvalga qo'shimcha ravishda, tuman yoki shaharlardagi yopiq yer maydonlari (issiqxonalar, parniklar) mavjud bo'lgan mikrofirm va kichik korxonalar sonining kamligini hisobga olib, shuningdek, dehqonchilik bo'yicha tanlanma kuzatuv natijasida olinadigan axborotlarning ishonchliligini ta'minlash maqsadida, tartiblangan ro'yxatdan birinchi kuzatuv davrida kuzatuvlar o'tkazish uchun mikrofirm va kichik korxonalarni tanlash 2-jadval yordamida amalga oshiriladi.

29. Har bir to'plam bo'yicha tartiblangan ro'yxat tuzilganidan so'ng tanlash foizi, tanlanma to'plamdagi mikrofirm va kichik korxonalarning soni, tanlash oralig'i (qadami) aniqlanganidan keyin har bir o'rganiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha alohida kuzatuvlar uchun mikrofirm va kichik korxonalarning **yakuniy ro'yxati (tanlanma to'plam (n))** tuziladi.

Yakuniy ro'yxatda faqat kuzatuvlar o'tkazilishi lozim bo'lgan mikrofirm va kichik korxonalar qoldiriladi.

2-jadval

**Yopiq yer maydonlari (issiqxonalar, parniklar) maydoni
mavjud mikrofirm va kichik korxonalarni tartiblangan
ro'yxatdan kuzatuv o'tkazish uchun tanlash**

T.r.	Mikrofirm va kichik korxonalarni ularning bosh to'plamdagi soniga (N) bog'liq ravishda guruhlash, birlik	Mikrofirm va kichik korxonalarni ularning bosh to'plamdagi soniga (N) bog'liq ravishda tanlash foizi (w)	Tanlanma to'plamdagi subyektlarning soni (n), birlik (4-ustun=2 / 100 * 3)	Tanlash oralig'i (qadami) (a) $(a = \frac{N}{n})$ (5-ustun = 2 / 4)
1	2	3	4	5
1	1 - 200	100,0	200	-
2	201 - 300	65,0	195	2
3	301 va yuqori	50,0	-	-

Yakuniy ro'yxat Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bo'yicha tumanlar, shaharlar kesimida va har bir o'rganiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha alohida tuziladi (shartli misol 4-ilovada ko'rsatilgan).

Yakuniy ro'yxatga bitta mikrofirm va kichik korxona bir nechta marta o'rganiladigan turli ko'rsatkichlar bo'yicha tushishi mumkin.

3-bob. Tayyorgarlik ishlari

30. Tayyorgarlik tadbirlari va kuzatuvlarning borishi monitoringini o'tkazish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari tomonidan ta'minlanadi.

Tayyorgarlik ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman hamda shaharlar darajasida elektron ro'yxatga qo'shilgan barcha mikrofirmalar va kichik korxonalarga xabarnoma yetkazish, savolnomani to'ldirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, kuzatuvning maqsadi, vazifalari va uni o'tkazish muddatlari to'g'risida tushuntirishlar berish ishlarini o'z ichiga oladi.

4-bob. Axborotlarni yig'ish

31. Axborotlarni yig'ish, qat'iy ravishda kuzatuvlar uchun tanlab olingan mikrofirmalar va kichik korxonalarni qamrab olgan holda barcha tuman va shaharlar bo'yicha amalga oshiriladi.

32. Savolnomalar mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan qog'oz ko'rinishida taqdim etilganda birlamchi ma'lumotlarni dasturga kiritish tuman, shahar statistika bo'limlari xodimlari tomonidan maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda amalga oshiriladi.

33. Yuqori foizda savolnoma savollariga javob berilmasligi kuzatuvlar natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini va natijada ma'lumotlarning to'liqligi prinsipi buzilishiga olib kelishini hisobga olib, hududiy statistika organlari mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan javoblarning eng yuqori foizini ta'minlashlari uchun ularga tegishli tavsiya va tushuntirishlar berishlari lozim.

34. Mikrofirmalar va kichik korxonalar savolnomani to'ldirishdan bosh tortgan hollarda tanlovga qo'shilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarni almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

5-bob. Ma'lumotlarni qayta ishlash

35. Kuzatuv natijasida olingan axborotlar, standart dasturiy vositalarni qo'llash orqali qayta ishlanadi.

36. Kuzatuv natijalarini tahlil qilish va zarur hollarda ularga tuzatishlar kiritish ishlari bajarilganidan so'ng ma'lumotlarning birlamchi bazasi, mikrofirmalar va kichik korxonalar ro'yxati hududiy statistika organlari tomonidan Statistika agentligiga yuboriladi.

6-bob. Tanlanma kuzatuv ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish

37. Mikrofirmalar va kichik korxonalar kuzatuv natijasida olingan ma'lumotlarni bosh to'plamga tarqatish, tuman, shahar darajasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha

avtomatlashtirilgan tarzda Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda amalga oshiriladi.

38. Tanlanma kuzatuv ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish har bir o'rganiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha alohida tartiblangan ro'yxatga muvofiq, mikrofirma va kichik korxonalarining soniga nisbatan tuman, shaharlar bo'yicha tanlov foiziga mutanosib ravishda amalga oshiriladi (shartli misollar 5-ildavda ko'rsatilgan).

Masalan, **To'plam 1** – bug'doy ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarining tartiblangan tuman ro'yxatiga 162 birlik mikrofirma va kichik korxonalar kiritilgan, shundan, kuzatuvlar uchun 25,0 foiz subyekt yoki 41 birlik tanlab olingan.

Kuzatuv o'tkazilgan 41 subyekt bo'yicha umumiy hajmda 165 sentner bug'doy hosili olingan.

Yig'ib olingan bug'doy yalpi hosili bo'yicha tanlanma to'plam ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish quyidagi formuladan foydalangan holda amalga oshiriladi:

$$Q = \frac{q \cdot 100}{w},$$

bu yerda Q – bosh to'plamdagi bug'doyning yalpi hosili hajmi, sentner;

q – tanlanma to'plamdagi bug'doyning yalpi hosili hajmi, sentner;

w – bosh to'plamdan tanlanma to'plamdagi subyektlarning tanlash foizi.

$$Q = \frac{165 \cdot 100}{25,0} = 660,0 \text{ sentner.}$$

Demak, kuzatuv natijalariga ko'ra, tuman bo'yicha bosh to'plamdagi bug'doyning yalpi hosili baholashga ko'ra 660,0 sentnerni tashkil qiladi.

39. Shu tarzda, kuzatuv ma'lumotlari boshqa to'plamlarning tartiblangan ro'yxati bo'yicha alohida bosh to'plamga tarqatiladi.

7-bob. Ma'lumotlarni chop etish va tarqatish

40. Mikrofirma va kichik korxonalarining qishloq xo'jaligi faoliyati statistik kuzatuvlari natijalari bo'yicha umumiy ma'lumotlar tahliliy statistik jadvallar ko'rinishida, shuningdek, foydalanuvchilarning so'rovlari, xalqaro tashkilotlar so'rovnomalari bo'yicha tarqatiladi va Statistika agentligining veb-saytiga joylashtiriladi.

8- bob. Yakuniy qoidalar

41. Mazkur uslubiy nizomni ishlab chiqishda, O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligi sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlatlararo statistika qo'mitasi (MDH statistika qo'mitasi)ning metodologik tavsiyalaridan, shuningdek, MDH davlatlarining tajribalaridan foydalanilgan.

42. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo'jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
3-ilova

**To'plam 3 – yirik shoxli qoramollar bosh soni mavjud
mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati
(bosh to'plamdagi subyektlar soni (N))**

(shartli misol)

T/r.	Mikrofirma va kichik korxonalarning nomi	IFUT -2	Yirik shoxli qoramollar bosh soni, bosh, o'sib boruvchi tartibda
1			1
2			2
3			3
...			...
...			...
N			N

Izoh: mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha tuman va shaharlar kesimida va har bir o'rganiladigan mollar turi, parrandalar bo'yicha tuziladi.

Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo'jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
4-ilova

**Kuzatuvlar uchun tanlab olingan bug'doy ekin maydonlari
mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning yakuniy ro'yxati
(tanlanma to'plamdagi subyektlar soni (n))**

(shartli misol)

T/r.	KTUT	STIR	Mikrofirma va kichik korxonalarning nomi	IFUT -2
1				
2				
3				
....				
....				
N				

Izoh: yakuniy ro'yxat, ya'ni tanlanma to'plam, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha tuman va shaharlar kesimida va har bir o'rganiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha alohida tuziladi.

Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo'jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
1-ilova

To'plam 1 – yopiq yer (issiqxonalar, parniklar) maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati
(bosh to'plamdagi subyektlar soni (N))

(shartli misol)

T/r.	Mikrofirma va kichik korxonalarning nomi	IFUT -2	Umumiy maydoni, m ² , o'sib boruvchi tartibda
1			1
2			2
3			3
...			...
...			...
N			N

Izoh: mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha tuman va shaharlar kesimida tuziladi.

Mikrofirma va kichik korxonalarning qishloq xo'jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
2-ilova

To'plam 2 – bug'doy ekin maydonlari mavjud mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati
(bosh to'plamdagi subyektlar soni (N))

(shartli misol)

T/r.	Mikrofirma va kichik korxonalarning nomi	IFUT -2	Bug'doy ekin maydonlari, gektar, o'sib boruvchi tartibda
1			1
2			2
3			3
...			...
...			...
N			N

Izoh: mikrofirma va kichik korxonalarning tartiblangan ro'yxati Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha tuman va shaharlar kesimida va har bir o'rganiladigan ko'rsatkichlar turi bo'yicha tuziladi.

**Tanlanma to'plam ma'lumotlarini oddiy usulda, tanlash foiziga
mutanosib ravishda bosh to'plamga tarqatish hisob-kitobi misoli**

(bug'doy asosida) *)

(shartli misol)

T/r.	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkich- lar ma'lumotlari	Hisob- kitoblar	Formulalar
1	Tuman bo'yicha bosh to'plamdagi subyektlar soni (N), birlik	162	-	N
2	Bosh to'plamdan tanlanma to'plamga subyektlarni tanlash foizi	25,0	-	w
3	Tanlanma to'plamdagi subyektlarning soni (n), birlik	41	$3 = 2 \times 1 / 100$	$n = \frac{w * N}{100}$
4	Tanlanma to'plamdagi bug'doyning yalpi hosili hajmi, sentner	165,0	-	q
5	Bosh to'plamdagi bug'doyning yalpi hosili hajmi, sentner	660,0	$5 = 4 \times 100 / 2$	$Q = \frac{q * 100}{w}$

Izoh: *) Shu tarzda, kuzatuv ma'lumotlari boshqa to'plamlarning tartiblangan ro'yxati bo'yicha alohida bosh to'plamga tarqatiladi.